

PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH TA'LIMI

SH.Q. Mardonov

O'zPFITI professori

F.SH. Mardonov

CHDPU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6952812>

Аннотация. Мақолада малакасини ошириши тизимининг ўзига хос хусусиятлари ва таълимнинг бошқа турларидан фарқи кўрсатиб берилган.

Калим сўзлар: малака ошириши, педагог, субъект, объект, ўқув муассасаси, ўқув муносабатлари, ўқув жараёни, билим, кўникма, катталарап таълими.

ОБУЧЕНИЕ ПО ПОВЫШЕНИЮ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

Аннотация. в статье показано своеобразие повышения квалификации педагогических кадров и их отличии от других систем непрерывного образования.

Ключевые слова: повышение квалификации, педагог, субъект, объект, учебное заведение, учебные отношения, учебный процесс, знание, умения, учеба взрослых.

TRAINING TO IMPROVE THE QUALIFICATIONS OF TEACHING STAFF

Abstract. The article shows the originality of advanced training of teaching staff and their difference from other systems of continuous education.

Keywords: professional development, teacher, subject, object, educational institution, educational relations, educational process, knowledge, skills, adult education.

KIRISH

Pedagog kadrlar malakasini oshirishda ta'lif jarayonini tashkil etuvchi o'qituvchi tinglovchi bilan shunday munosabatlar tizimini tanlashi kerakki, unda tinglovchi o'quv jarayonida o'z o'rnini anglasin hamda o'zini ta'lif ob'ekti sifatida emas, balki uning ishtirokchisi, yaqqol sub'ekti tarzida ko'rsin.

TADQIQOT MATERIALLRI VA METODOLOGIYASI

Ta'lifni tashkil etish tajribasida munosabatlarning ikki turi mavjud:

- 1) «Sub'ekt-ob'ekt» munosabati, ya'ni ta'lif oluvchining o'quv materialiga munosabati;
- 2) «Sub'ekt-sub'ekt» munosabati, ya'ni tinglovchining ta'lif jarayoni tashkilotchilari bilan munosabati.

Bu munosabatlarning ikki turi «sub'ekt-ob'ekt» munosabatlarini tashkil etib, birgalikda o'quv jarayoni tuzilishini belgilaydi.

Munosabatlarning birinchi turi ta'lif jarayoni ishtirokchilarini faoliyatining yo'nalishini tashkil etadi. Munosabatlarning ikkinchi turi ta'lif jarayoni ishtirokchilarining rolini (o'rnini) shu ijtimoiy birlikda belgilaydi.

O'qish ma'lum faoliyat shakli sifatida ta'lif jarayoni ishtirokchilarining munosabatlaridagi o'rinalarini hisobga olmay tashkil qilishini mumkin emas. Bu qonuniyat ta'lifning ob'ektiv tabiatidan, uning ikkiyoqlama, ko'pqirrali jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Agar ta'lifning ikkiyoqlamaligi ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchining munosabatlarida namoyon bo'lsa, ko'pyoqlamaligi ta'lif beruvchilarning o'zaro va o'quv jarayonining boshqa ishtirokchilarini munosabatlarida namoyon bo'ladi. Taniqli psixolog olim S.L. Rubinshteyn ta'kidlaganidek, kishi faoliyati haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun sub'ektning boshqa

kishilarga munosabatini, uning asosini tashkil etuvchi o‘zaro aloqa va muloqoti haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmoq lozim [1].

Shaxslararo munosabatlarning bu jihatlarini inobatga olish yana shuning uchun ham zarurki, katta yoshdagi kishilarning o‘z hamkasblari va o‘qituvchilar oldida «uyalish» va «o‘zini tiyish», ya’ni biron narsani bilmasdan uyatda qolish, o‘z obro‘lari haqida tashvish chekishlari ham bor. SHuni istihola qilib, tinglovchi o‘qituvchilar ma’lum mavzuda o‘z fikrlarini ochiq bayon qilishlari so‘ralganda, xato qilib, guruh oldida o‘z obro‘sining pasayishidan qo‘rqadilar. Bunday «tortinchoqlik» tinglovchi-larni o‘zaro va o‘qituvchi bilan faol muloqotga kirishishlariga xalaqit beradi.

Shuning uchun malakasini oshirish muassasasining professor-o‘qituvchilari hamda ma’muriyati tinglovchilar bilan ta’lim jarayonida shunday sub’ekt-ob’ekt munosabatlarini tanlashlari lozimki, uning oqibatida har bir tinglovchi o‘z fikrlarini erkin bayon eta olsin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘quv faoliyati boshqa faoliyat turlaridan maqsad va vositalari bilan farq qiladi. O‘qishning maqsadi – uning kutilgan natijasi, sub’ekt faoliyatidagi o‘zgarish va rivojlanishda hamda tajribasining oshishida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, kishining yoshi o‘tishi bilan unda murakkab ijtimoiy, ruhiy, biologik, fiziologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar inson faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi. O‘z navbatida ular katta kishi o‘quv faoliyatiga ham ta’sirini o‘tkazadi. Bu o‘zgarish uning tinglovchi sifatida egallagan pozitsiyasi va maqomiga, shuningdek, asosiy faoliyati – o‘qituvchiligi, jamoadagi mavqeい, ma’lumoti, hayot tajribasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Buning oqibatida katta kishining ijtimoiy mavqeい, uning hayoti turli davrlarida o‘qishga munosabatini belgilaydi. O‘quv muassasasi o‘qituvchisining malakasini oshirish ta’limi jarayonidagi ishtiroki, uning mavqeini o‘zgartiradi. Ammo bu o‘zgarish silliq, ruhiy qiyinchiliklarsiz o‘tmaydi. O‘qituvchining o‘quvchi sifatidagi yangi roli o‘zgacha munosabatlarga asoslanadi – muloqot usulining o‘zgarishi hamda o‘qituvchining tashkilotchilikdan o‘quvchilikka o‘tishi bilan xarakterlanadi. Dars berayotgan o‘qituvchining tinglovchilik roli, uning o‘z bilimi va tajribasi hamda o‘quv materialini asosiy faoliyatiga kerakliligi jihatdan baholashiga xalaqit bermaydi. Aksincha, bu uning intilishni kuchaytiradi. SHuning uchun o‘qituvchi harakati va munosabati hamda o‘quv materialining mazmuni uning kasbiy talablariga javob bermasa, o‘qishga nisbatan unda salbiy munosabat paydo bo‘ladi. Uning bunday munosabatining yana bir sababi hozirgi o‘qish uning uchun asosiy emas, balki asosiy faoliyatiga tayyorlash vazifasini o‘taydi hamda bu o‘qish katta kishi uchun yordamchi bo‘lib, asosiy mehnatini muvaffaqiyatli amalga oshirish zaruriyatidir, – deb yozadi YU.N. Kulyutkin [2]. Bu esa katta kishilarning bolalarga nisbatan o‘qishga ruhiy munosabatini keskin o‘zgartiradi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida tinglovchilarning ijtimoiy o‘rni hamda ijtimoiy-psixologik, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. SHuning uchun ta’lim jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, unda o‘rganilayotgan muammo tinglovchining asosiy faoliyatiga bog‘liq hamda o‘quv muassasasi o‘quv jarayoni, shuningdek, o‘quvchi faoliyatini qayta qurish zaruriyati sifatida qaralsin.

Qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonidagi yana bir o‘ziga xos xususiyat – tinglovchi saviyasi, tajribasi, tafakkurining yuqoriligi va o‘qish motivining anglaganligidadir. SHuning uchun malakasini oshirishni tashkil qilish bilish faoliyati sifatida ta’lim sub’ektining faol ishtirokida olib borilishi kerak.

O‘qish ehtiyoji, o‘z ma’lumotini chuqurlashtirish,- deb yozadi YU.N. Kulyutkin, - katta kishilarda amaliy hayotda va ishlab chiqarish faoliyatida paydo bo‘ladi, shuningdek, muammolarni echish jarayonida vujudga keladi. Katta kishi egallanayotgan bilimlarini amaliy jihatlari bilan solishtirib, baholaydi. Katta kishida bilish faoliyatining motivi, faolligi va maqsadga qaratilganligi, bilimining shaxsiy mohiyati bilan belgalanadi. Bu ham bo‘lsa o‘quv jarayonida o‘qituvchilarning (tinglovchi-larning) ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, shuningdek, ta’lim tizimida muhim o‘rin egallovchi muloqotning ahamiyatini eslatish joiz. CHunki malakasini oshirish jarayonidagi pedagogik muloqot darajasi va funksiyasi bilan umumiyl o‘rta ta’lim maktabi, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi hamda oliv o‘quv yurtidagi muloqotdan keskin farq qilishi kerak [2].

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqotlar pedagog kadrlar malakasini oshirishning yuqoridagi talablariga javob berolmasligi, kurslardagi o‘quv rejalar real o‘quv yurti hamda pedagoglarning talab va ehtiyojlari to‘la javob bermasligi, ularning biryoqlamaligini ko‘rsatadi.

Malakasini oshirish jarayonidagi bu kabi kamchiliklarni bartarab qilish uchun o‘quv muassasasidagi ta’limni tashkil qilishda ilm-fanning so‘ngi yutuqlari hamda ilg‘or tajribalarni, o‘quv jarayonida yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalarini qo‘llashning aniq usullari va tipik qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo‘llarini ko‘rsatish lozim. Ta’lim jarayonini shu talablar asosida tashkil qilish malakasini oshirish tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar mahoratiga ham oshirilgan talablar qo‘yadi. Malakasini oshirish jarayonini o‘quv muassasasi va unda ishlayotgan pedagoglar ehtiyoji bilan bog‘lash prinsiplari hamma vaqt, hamma joyda, hamma o‘qituvchilar tomonidan to‘liq amalga oshirilmay kelmoqda. Bu talabni ham malakasini oshirish tizimida, ham o‘quv muassasasida bir vaqtning o‘zida ishlaydiganlargina amalga oshira oladilar. Faqat umumiyl o‘rta ta’lim maktablari, yoki oliv o‘quv yurtlarida ishlaydiganlar malakasini oshirishidagi o‘quv xususiyatlarini chuqur tushunmaydilar, ularning mashg‘ulotlari bir yoqlama va tinglovchilarning talablarini to‘liq qondira olmaydi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini takomillashtirishni ilmiy asosda qayta qurish uchun bu jarayon tashkilotchilarning tayyorgarlik darajasi, tinglovchilar bilan muomalasi, muloqotining yuksak darajada bo‘lishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. CHunki bu tizim o‘qituvchisining vazifasi maxsus metodikalar, ta’sir etish usullari, shaxsiy va kasbiy sifatlari bilan ta’lim jarayonida tinglovchilarga yangi insonparvarlik, demokratik munosabatlarini shakllantirishning namunalarini ko‘rsatishlari zarur. SHu asosda tinglovchilardagi salbiy - «Men hamma narsani bilaman» stereotipni yo‘qotish mumkin.

Tinglovchilar faoliyati va tajribasini tahlil qilganda shunday vaziyatlarda boshqa o‘qituvchilar tajribasida uchraydigan qiyinchiliklar, ularni bartaraf qilish uchun qanday harakatlar qilish lozimligi, o‘quvchilar bilimi turlicha bo‘lganda ta’lim mazmunini belgalashning o‘ziga xos tomonlari, o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish yo‘llarini aniq misollarda ko‘rsatish muhimdir. SHuningdek, o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan qanday usul va vositalar o‘quvchilarda bilim egallahda rag‘bat uyg‘otishi hamda o‘quv faoliyatini faollashtirib, ruhiy sifatlari va dunyoqarashi shakllanishiga asos bo‘lishini aniq misollarda ko‘rsata bilish tinglovchilarda kurs mashg‘ulotiga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. CHunki ta’lim jarayonida o‘qituvchi kasbiy faoliyatining bosh sub’ekti – o‘quvchi, uning predmeti – o‘quvchi ma’naviy dunyosining shakllanishidir.

Tinglovchilarni asosiy faoliyatiga sifatli tayyorlash – ularning ish tajribasidan keng foydalanishni taqozo qiladi. Bu didaktik usul tinglovchilar faolligining oshishi hamda o'qituvchi faoliyatiga ma'lum oshirilgan talablar qo'yadi.

Yuqoridagi vazifalarning to'g'ri hal qilinishi quyidagi masalalarni ijobiy echishga asos bo'ladi:

1) kurs mashg'ulotlari va ulardan keyingi o'qishga bo'lgan salbiy munosabatlar bartaraf qilinadi;

2) o'qituvchilarda ko'p uchraydigan – kursda bayon qilingan ma'lumotlar ularga ma'lum edi, degan noto'g'ri tasavvur bartaraf qilinadi.

Bayon qilingan omillar pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishida ta'limni tashkil qilishga ta'sir qiladi. Ammo ta'lim jarayoniga salbiy munosabat va o'ziga ortiqcha ishonch ruhiy-didaktik omillar hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchining katta kishi sifatida faoliyati va shaxsining xususiyati e'tiborga olinmasa, bunday holat kuchli namayon bo'ladi. Buning oqibatida shakllangan eskicha fikrlash stereotipi bilan kasbiy faoliyatga yangi ilmiy yondashuvlar, ijtimoiy talablar orasida ziddiyatlar vujudga kelib, ta'lim-tarbiyada yuqori ko'rsatkichlarga erishishib bo'lmaydi. Ko'rib chiqqanimizdek, kattalarni o'qitishning ijtimoiy-psixologik, didaktik xususiyatlari malakasini oshirish muassasalaridan ko'chib, mакtab ta'limini tashkil qilishga ham ta'sir qiladi. Bularga asoslanish esa malakasini oshirishda o'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilish, unda o'qituvchi va tinglovchi munosabatlarini yo'lga qo'yishga asos bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan voz kechishga olib keladi.

O'z navbatida bu ishlarni to'g'ri tashkil qilish asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ta'limni tashkil qilishning yuqori saviyasiga erishish, tizim xususiyati va ta'lim sub'ekti darajasini inobatga olish mumkin bo'ladi. U yoki bu vositalarni tanlash mezoni, ular faoliyatining kutilgan maqsadiga mos kelishidir. CHunki maqsad xuddi qonun kabi usul va harakatni belgilaydi. Bu xulosa o'qituvchiga pedagogik ta'sir vositasi o'quvchi, talabandan farq qilishini ilmiy asoslaydi, desak xato bo'lmaydi.

Ta'limning bu funksiyasi echilishi lozim bo'lgan vazifalarni hal qilishda o'qituvchi va tinglovchi harakatining yaxlitligini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonini shu asosda boshqarish uning natijalariga erishishni tezlashtiradi. SHu bilan birga ta'lim beruvchilarning o'z harakatlarini o'zları nazorat qilishlari uchun sharoit yaratib, o'quv axborotini o'zlashtirishni ham nazorat qila oladi. Bunda eng muhim o'quv operatsiyalarini bajarish ketma-ketligiga rioya qilish, o'zlashtirish natijalarini nazorat qilish hamda o'zini o'zi nazorat usullari muhim hisoblanadi.

Buning oqibatida bilim, ko'nikma va malakalarining kuchli va sayoz tomonlari aniqlanadi. Ta'lim jarayonida ikkiyoqlama aloqaning o'rnatilishi, ta'limda rejalashtirilgan natija bilan erishilgan natija o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik, korreksiyalash, tashxis qo'yish imkoniyatini yaratadi.

Korreksiya, qo'llanilgan vositalar ta'lim natijalari bilan taqqoslanganda, natijalar o'qituvchini qanoatlantirmasa – bu tanlangan vositalarning ham yaroqsizligini anglatadi. SHu asosda ta'limni tashkil qilish, uning shakl, metod hamda vositalarini o'zlashtirish lozimligini ko'rsatadi. Qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida ta'limni yo'naltirishning mohiyati yana shundaki, bunda nafaqat o'qituvchi faoliyatini tartibga solish, balki ularning birligidagi faoliyatini tashkil qilish juda muhimdir. Bizning izlanishimiz mantiqi nuqtai nazardan hamda kattalar ta'limini tashkil qilish jihatdan bunday yondashuv metodologik ahamiyatga ega. Bunda ta'lim jarayonini tashxis qilishning ikki xilidan foydalaniladi. YA'ni o'ziga o'zi baho berish

(ham o‘qituvchi, ham tinglovchi) va ekspert baholash (tinglovchi faoliyatini o‘qituvchi) amalga oshiriladi. Bu ikki xil tashxisli baholashning muhimligi yana shundaki, unda ikki faoliyat o‘qitish va o‘qish yaqinlashadi. Bunday yaqinlashish tinglovchi kasbiy mahoratini yanada takomillashtirish uchun turki bo‘ladi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni tizimli tahlilining ko‘rsatishicha, uni tashkil qilishdagi eng katta kamchilik kattalar ta’limining ruhiy-pedagogik xususiyatlarini inkor qilish, shuningdek, kattalar ta’limida ham o‘quvchi va talabalarni o‘qitish usul va vositalarining qo‘llanilishi uning ta’sirchanligini keskin pasaytirib yuboradi.

Kattalar ta’limini tashkil qilishdagi avtoritar vaziyat yana bir salbiy holatga – kurs tinglovchisi shaxsiy g‘ururining paymol bo‘lishiga olib keladi. O‘z navbatida bundan kelib chiquvchi xulosa, kattalar ta’limini tashkil qilish shakli va metodlarini hamda jarayon (ishtirokchilar) sub’ektlarining o‘zaro munosabatlarini mustaqillik mafkurasi talabi asosida – erkin, ozod va mustaqil fikrlovchi fuqaroni shakllantirish tomon o‘zgartirishdir. Bunday sharoitda kattalar, ayniqsa o‘qitish, o‘rgatishda mutaxassis bo‘lgan o‘qituvchilarni o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari, ularning ijtimoiy-psixologik, fiziologik xususiyat-lari asosida ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi (kattalar ta’limini insonparvarlashtirish, gumanitarlashtirish).

MUHOKAMA

Kattalar ta’limida o‘qishga munosabat ularning kasbiy ehtiyojlarini hisobga olish darajasiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Aynan shu omillarni hisobga olish kattalarnn o‘qitishda ta’limga munosabatning xarakterini va o‘qishdagi xulq-atvoriga jiddiy ta’sir qiladi.

Izlanishlarimiz jarayonida o‘tkazilgan tahlillarimiz tinglovchilar o‘qishiga munosabatining xarakteri uni tashkil qilish darajasi, o‘qituvchilar bilan tinglovchilar orasidagi munosabat va tinglovchilar o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish usullariga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Kattalar ta’limini qayta qurish faqatgina ta’lim jarayoni boshqaruv mexanizmlarini qayta qurish orqali amalga oshirilishi mumkin. YUqorida qayd qilganimizdek, o‘quv jarayoni ta’lim sub’ekt va ob’ektlarining o‘zaro aloqadorligi tarzida quriladi. Bunda o‘zaro aloqadorlikni o‘quv vaziyatlari tarzida ham qarashimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, vaziyatni sub’ektlarning o‘zaro ta’siri tariqasida ham qarash mumkin. O‘quv-pedagogik vaziyatlar o‘z mohiyati bilan ijtimoiy bo‘lib, boshqa ijtimoiy hodisalardan o‘zining sub’ekt-ob’ekt munosabatlari bilan farq qiladi. Ammo bu munosabatlar ma’lum boqichlar bilan belgilanadi. Bu jarayonlarga etalon me’yorlarining kiritilishi o‘quv jarayonini nazorat qilish uchun sharoit yaratishga mo‘ljallangandir. Ammo ta’lim-tarbiyada ulardan foydalanishda shablon va qattiq chegaralar bo‘g‘masligi (belgilanmasligi) lozim. Ularni ta’limda qo‘llash tashqi ta’sirning ichki o‘zini o‘zi nazorat qilishga o‘tkazish vositasi sifatida qarash mumkin.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishining hozirgi bosqichida tinglovchilar bilish faoliyati reproduktiv darajada tashkil qilinib, olingan bilim va ko‘nikmalar xotira omboriga to‘planib, kerak bo‘lgan hollarda ulardan foydalaniladi. Ta’limni tashkil qilishning bunday shakli tinglovchilarining o‘qishda bilish imkoniyat-laridan to‘la foydalanish hamda ularning fikrlesh faoliyatlarining rivojlanishiga yo‘l ochib bera olmaydi. Holbuki, malakasini oshirish jarayoni o‘quv faoliyati faol mustaqil izlanish, o‘rganish tarzida, yoki ijodiy jarayon sifatida tinglovchi nazariy bilim va amaliy tajribasidan foydalanish, uni ma’lum masalalarni kasbiy hal qilish jarayoniga jalb qilish tarzida tashkillashtirilishi lozim. SHunday qilib, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishdagi kattalar ta’limining xususiyati

tinglovchining ongli mustaqil va faol faoliyatini tashkil etishga asoslanishi, uni kasbidagi ma'lum pedagogik vaziyatlarni echishga jalb qilishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni o'qituvchi va tinglovchining birlgilidagi murakkab va ko'pqirrali faoliyatlaridan tashkil topadi. Bunday jarayonning mohiyati ularning individual xususiyatlari, o'quv materialining mazmuni, jarayonni amalga oshirish sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Bu esa kattalar ta'limiga ijodiy yondashuv hamda turli-tuman metodlarni qo'llashni taqozo qiladi.

SHunday qilib, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonidagi ta'limni o'qitishning boshqa shakllari bilan taqqoslash, uning o'ziga xos tuzilishi va xususiyatlarini – ta'lim maqdsadi, ob'ektning o'ziga xosligi, o'qituvchi shaxsi va faoliyatining katta yoshdagi shakllangan mutaxassis sifatida namoyon bo'lishini tasdiqladi. Bu esa tinglovchi o'quv faoliyatining tuzilishi bilan belgilanishi, uning ta'lim jarayonining faol sub'ekti bo'lishini taqozo qilishini ko'rsatdi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni-ning kamchiliklaridan biri ta'lim jarayonini tashkil etishda kattalar ta'limiga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarini inkor qilishdir. Maktab ta'limi, yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, yoki oliy ta'limga doir metodikalar, o'qitish usullarini asossiz ravishda kattalar ta'limiga ko'chirish ham uning ta'sirchanligini pasaytirmoqda. SHuningdek, uning samaradorligiga salbiy ta'sir qilayotgan omillardan yana biri malakasini oshirish jarayonining avtoritar tarzda tashkil qilinishi, ya'ni kattalar ta'limida demokratik va insonparvarlik munosabatlarining yo'qligidir. Ta'lim beruvchi o'qituvchining diktatorligi, baholash mezonlari va o'quv rejalarining «qattiqligi» ham tinglovchilarda o'qishga xohishning pasayishiga yoki «qo'rquivi»ga sababchi bo'lmoqda. Bulardan tashqari malakasini oshirish bosqichlari va shakllari o'rtasida uzviylik hamda qat'iylikning ma'naviy va moddiy jihatdan baholanmasligi tinglovchi-ning malakasini oshirishga bo'lgan rag'batining pasayishiga sababchi bo'lmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishining o'ziga xos kasbiy ta'limning turi hamda kattalar ta'limining o'ziga xosligidan kelib chiqib, mazkur tizim uchun maxsus mutaxassis o'qituvchilarining maxsus tayyorlanmasligi ham bu tizimning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilmoqda. SHu asosda kattalar ta'limining metodik asoslarini ishlab chiqish, malakasini oshirish tizimida yoshi hamda ruhiy-fiziologik, pedagogik faoliyati va shaxsi xususiyatlarini hisobga olish asosida malakasini oshirishni tashkil etish ilmiy-amaliy zaruriyatga aylanmoqda.

Biz izlanishimizni shakllangan ilmiy farazimizni asoslash hamda malakasini oshirish muassasalari xodimlari ish tajribalarini o'rganish maqsadida tashkil qildik.

Bunda soha mutaxassislarining (malakasini oshirish xududiy markazlari o'qituvchilar) aksariyati malakasini oshirish tizimidagi ta'limning umumiyligi o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta'lim maktabidagi farqini aniq tasavvur qila olmaydilar.

Jumladan, so'ralganlardan ko'rsatilgan ta'lim muassasalari bilan malakasini oshirish kurslarida o'qitish farqini izohlashda: 33,3% - «malakasini oshirish kurslarida kasb mahoratini oshiradi»; 49-50% - «ha, farq qiladi»; 13,33 % - «judha ham farq qiladi» va 3,33% - javob berolmadilar. SHuningdek, ko'rsatilgan ta'lim muassasalari orasidagi umumiylilik va farqni aniq pedagogik nuqtai nazarda asoslay olmadilar.

Malakasini oshirishning o‘ziga xos tomonlarini aniq tasavvur qila olmaslik tahlil oluvchilar bilim saviyasiga ham salbiy ta’sir qiladi. Malakasini oshirish muassasalarini xodimlaridan tinglovchilarning «Ta’lim olish darajasi sizni qanoatlantiradimi?», deb so‘ralgan savolga – 51,6% - asosan qanoatlantiradi; 38,3% - uncha emas; 36,8% - qanoatlantirmsligini e’tirof etishdi.

Bundan tashqari tinglovchilardan: «Kurs davomida o‘zingiz uchun etarli amaliy va nazariy bilim ola biladingizmi?», deb so‘ralganda – 46,6% - «ha»; 53,33% - etarli emas; 10% - faqat amaliy bilim oldik; 16,66% - faqat nazariy bilim oladik, deb javob berishdi. Raqamlarda ifodalangan ko‘rsatkichlar (farqlar) ham bu ta’lim muassasalarida kadrlarni qayta tayyorlashni taqozo qilinishini ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniniig kamchiliklarini aniqlar ekanmiz, uni takomillashtirish, quyidagi asoslarda amalga oshirilishi mumkin, deb hisoblaymiz:

1. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish nafaqat kattalar ta’lim tizimi, balki ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish tizimi hamdir. SHuning uchun uning mazmun, shakl va metodlari umumiy o‘rtalim maktablari, o‘rtal maxsus, kasb-hunar ta’limi hamda oliy ta’lim tizimlaridan farq qilishi lozim.

2. Pedagog kadrlar malakasini oshirish – ta’lim sohasi mutaxassisini faoliyatini takomillashtirish tizimi hisoblanadi. CHunonchi, malakasini oshirish tizimining boshqa ta’lim tizimlaridan keskin farqi shundaki, unda ta’lim oluvchilar ta’lim-tarbiya sohasi mutaxassisini sifatida o‘qishga yondashadilar. Tinglovchilarning mutaxassisiligi nafaqat malakasini oshirishning foydaliligi, ya’ni qanday bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lganligi nuqtai nazardan, balki ularni o‘qitganlarning faoliyati qay darajada amalga oshganligini ham baholashga imkon beradi.

3. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yuqoridaagi xususiyalari, uni amalga oshiruvchilar – ma’ruzachi, dars beruvchilardan kasbiy tayyorgarlikka egalik, kattalarning o‘ziga xos xususiyatlarini biluvchi mutaxassislar bo‘lishlarini pedagogik zaruriyatga aylantiradi.

REFERENCES

1. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. –SPb.: Piter, 2000.-720 s.
2. Kulyutkin YU.N.
3. Slastenin V.A., Podymova L.S. Pedagogika: innovatsionnaya deyatelnost. – Moskva, 1997.
4. Texnologiya obucheniya. Pedagogicheskiy sentr "Eksperiment". –Moskva-Riga, 1999.- 180 s.
5. Мусахоновна Қ. Л. УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА БИОЛОГИЯ ФАНИДАН САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШДА ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АСОСЛАРИ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В3. – С. 577-585.
6. Dzhuraev R. K., Karakhanova L. M. Model of the organization of research activities of 10th grade students in teaching physics and biology //International journal of discourse on Innovation, integration and education. – 2021. – Т. 2. – №. 01. – С. 296-300.

7. ДЖУРАЕВ Р. Х., КАРАХАНОВА Л. М. Модель организации исследовательской деятельности учащихся 10 классов при преподавании физики и биологии //International journal of discourse on Innovation, integration and education. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 295-299.
8. Musokhonovna K. L. ICT-As a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 315-321.
9. Kharaxonova L. M. SPECIFIC ASPECTS OF MEDIA EDUCATION AND ITS USE IN HIGH SCHOOLS //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – С. 278-284.
10. Каражанова Л. 6. DEVELOPMENT OF STUDENTS'KNOWLEDGE BASED ON THE USE OF 3D EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE BIOLOGY EDUCATION //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – №. 2. – С. 55-59.
11. Джураев Р. Х., Каражанова Л. М. Медиаобразование как фактор повышения качества обучения школьников //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2013. – Т. 11. – №. 2. – С. 322-323.
12. Сафарова Р. Г. и др. Ўқувчи-ёшларни оммавий маданият хуружларидан ҳимоя қилишнинг назарий-методологик асослари. – 2017.
13. Karakhanova L. M. USE OF MEDIERE RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF BIOLOGY IN SCHOOLS //International Scientific Review of the problems of pedagogy and psychology. – 2018. – С. 68-70.
14. Karakhonova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY. – 2019. – С. 35-39.
15. Jurayev, R. K., & Karakhanova, L. M. (2020). Scientific And Methodical Bases Of The Use Of Electronic Educational Resources In Teaching Biology In General Educational Schools. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8), 3500-3505.
16. Musaxonovna, K. L. (2022). General secondary schools requirements for the introduction of informed educational resources for the development of natural sciences. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 855-860.
17. Каражанова Л. М. НОВЫЕ ИНТЕРАКТИВНЫЕ ЭЛЕКТРОННЫЕ РЕСУРСЫ В СОВРЕМЕННОМ ОТКРЫТОМ ОБРАЗОВАНИИ В ОБУЧЕНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 1. – С. 1303-1305.
18. Джураев, Р. Х., & Каражанова, Л. М. (2022). ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ОДАРЕННЫХ ДЕТЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 66-70.
19. ДЖУРАЕВ Р. Х., КАРАХАНОВА Л. М. Модель организации исследовательской деятельности учащихся 10 классов при преподавании физики и биологии //International journal of discourse on Innovation, integration and education. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 295-299.